
GULLAB YASHNAYOTGAN SO'X



Gullab yashnayotgan So'x

O'zbekiston Respublikasining eng chekka hududi hisoblanmish So'x tumanida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari samarasida tumanimiz ko'rkam qiyofa kasb etmoqda. So'x — g'oyat xushmanzara maskan. Baland tog'lar, tiniq buloqlar, jo'shqin soylar, yashil alanga kabi ko'kka talpingan archalar... Tumanning eng katta boyligi bu – uning mehnatkash, mehmondo'st va samimiy odamlaridir.

Birgina men saylangan Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'inida imkoniyati cheklangan So'xlik bolajonlar uchun 7 milliard so'mlik maktabgacha ta'lim muassasasi, Hazrati Ali mahallamizda yashovchi aholi xavfsizligini ta'minlash uchun 6 milliard so'mga teng bo'lgan sel to'sish dambasi, 5 kilometr ichki yullarimizning asfalt qilinishi hamda 3 kilometr ichimlik suvi quvuri tortilib, 80 ga yaqin xonadonlarimizga "obi hayot" kelishi bu So'xlik, mehnatkash mehmondo'st va samimiy odamlari uchun "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan shiori ostida mahallamizdagi sayllarda, tadbirlarda, davra suhbatlarida bu g'oya bilan faxrlanib, ko'tarinki ovoz bilan zikr qilishlari qalblarga ruh baxsh etmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston lison qadri ulug'langan yurt! Biz So'xliklar uchun Mustaqillik, bu yilda bir marta, faqat mustaqillik bayramida emas, har kuni, har soat fikr yuritiladigan, har dam shukr qilinadigan, qadri, sharafi, bardavomligi ko'z qorachig'idek asrab-avaylanadigan bebaho ne'matdir. Uning sharofati bilan ijtimoiy, ma'naviy va diniy qadriyatlarining qaytadan tiklanishi va rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Mustaqillik bizga o'zligimizni qaytardi. Mustaqillik bizga dinu diyonatimizni qaytardi.

Fursatdan foydalanib, mustaqilligimizning o'ttiz ikki yillik to'yi munosabati bilan butun vatandoshlarimizni muborakbod etaman.

Nishonov Subhonali To'rayevich - Xalq deputatlari So'x tumani Kengashi deputati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-31 17:11:15